

## PARLAMENT HUQUQI: NAZARIYA VA AMALIYOT O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIK

Maxmatqulova Saida Ilxom qizi

### Annotatsiya

Parlament huquqining nazariy asoslari va amaliy faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritilgan. Parlamentning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni, qonun ijodkorligi jarayonining huquqiy va tashkiliy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida parlament tizimining shakllanishi, uning demokratik islohotlardagi o'rni va xalqaro tajribalar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda nazariya va amaliyot uyg'unligi qonun chiqaruvchi hokimiyat samaradorligini oshirishda muhim omil ekani ilmiy asosda isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** Parlament huquqi, qonun ijodkorligi, demokratiya, xalq vakilligi, davlat hokimiyati, nazariya va amaliyot, qonun ustuvorligi, Oliy Majlis.

### KIRISH

Parlament huquqi bu davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi organ faoliyatini tartibga soluvchi, xalq vakilligi tamoyillarini amalga oshiruvchi, huquqiy va siyosiy munosabatlarning muhim sohasi hisoblanadi. Har bir demokratik davlatning huquqiy tizimi parlament faoliyatining barqarorligi va mustaqilligiga tayanadi. Zero, qonun chiqaruvchi hokimiyat davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida parlament institutining shakllanishi va rivojlanishi mamlakatda demokratik islohotlarning chuqurlashuvi, fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi va xalq manfaatlarini ifoda etuvchi huquqiy davlat barpo etish yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Oliy Majlis ikki palatali tizimga o'tgach, qonun ijodkorligi jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, mahalliy manfaatlar va umumdavlat ehtiyojlarining uyg'unlashuvi uchun huquqiy asos yaratildi.

Parlament huquqining nazariy asoslari, eng avvalo, xalq suvereniteti va vakillik demokratiyasi tamoyillariga tayangan holda shakllanadi. Nazariya parlamentning tuzilishi, vakolatlari, ish yuritish tartibi, qonun qabul qilish jarayonining

bosqichlarini o'rganadi. Shu bilan birga, u qonun chiqaruvchi hokimiyatning boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan o'zaro munosabatini huquqiy jihatdan belgilaydi. Boshqacha aytganda, parlament huquqi davlat hokimiyatining muvozanatini ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmdir. Amaliy nuqtayi nazardan esa parlament huquqining samaradorligi qonun ijodkorligi jarayonida namoyon bo'ladi. Qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy hayotga ta'siri, ularning adolat, barqarorlik va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdagi o'рни parlament faoliyatining amaliy ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Shu bois parlament nazariy jihatdan ishlab chiqilgan huquqiy me'yorlarni amaliyotda to'laqonli qo'llay olishi lozim. Hozirgi globallashtirish sharoitida parlament huquqi nafaqat milliy, balki xalqaro tajribalar bilan ham uzviy bog'liq. Rivojlangan davlatlar parlamentlarining ish uslublari, xalq bilan muloqot mexanizmlari, qonun ijodkorligidagi innovatsion yondashuvlar O'zbekiston tajribasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, parlament huquqi nazariyasi bilan amaliyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning siyosiy faolligini kuchaytirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Parlament huquqining nazariy asoslarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mavjud qonunchilik jarayonini ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish va uni xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish orqali O'zbekiston parlament tizimini yanada takomillashtirish mumkin. Shu bois mazkur tadqiqot parlament huquqi nazariyasi bilan uning amaliy ifodasi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etishga, ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot parlament huquqining nazariy asoslari bilan amaliy faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiy-huquqiy, taqqoslama-huquqiy, tizimli va analitik metodlardan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy yondashuv orqali O'zbekiston parlament tizimining shakllanish bosqichlari, konstitutsiyaviy islohotlar va ular natijasida yuzaga kelgan huquqiy mexanizmlar o'rganildi. Taqqoslama-huquqiy metod yordamida xorijiy davlatlar parlament tizimlari bilan o'zaro tahlil olib borilib, xalqaro tajribaning o'zbek modeliga mos jihatlari aniqlab chiqildi. Tizimli va analitik yondashuvlar asosida parlament huquqi normalari, qonun ijodkorligi jarayoni hamda deputatlik faoliyatining amaliy mexanizmlari o'rganildi. Shu jarayonda parlament faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar, nazariy tamoyillar va amaliy natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiylik, obyektivlik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga amal qilindi.

Bu metodlar parlament huquqining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotdagi real mexanizmlar bilan uyg‘unligini aniqlash imkonini berdi.

### **Xulosa**

Parlament huquqi demokratik jamiyatning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, parlament huquqining nazariy asoslari va amaliy faoliyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston parlament tizimi so‘nggi yillarda xalq manfaatlarini ifodalash, qonun ustuvorligini ta‘minlash va hokimiyatlar muvozanatini mustahkamlash yo‘lida sezilarli natijalarga erishdi. Parlament huquqining nazariy rivoji bilan amaliyotdagi takomillik o‘zaro uyg‘unlashgan holda demokratik davlat boshqaruvining barqarorligini ta‘minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Norton, P. (2013). *Parliaments in Western Europe*. London: Routledge.
2. Azizxo‘jayev, A. (2022). “Parlament nazorati institutining huquqiy asoslari.” *Huquq va demokratiya jurnali*, 4(2), 45–52.
3. Dahl, R. A. (1989). *Democracy and Its Critics*. New Haven: Yale University Press.